

**BOLALAR ADABIYOTI VA PROFESSOR RAHMATULLO
BARAKAYEV**

Matluba Ulkanboyeva

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
2-bosqich tayanch doktoranti*

“Adabiyot yashasa, millat yashar” degan edi Cho‘lpon. Adabiyot yashamog‘i uchun adabiyotni sevguvchi avlod kerak. Bolalikda uyg‘otilgan muhabbat mangu bo‘ladi. Shu ma’noda katta adabiyot uchun bolalar adabiyoti o‘ziga xos poydevor vazifasini bajaradi.

Xalqimiz bolajon va har doim adabiyot vositasida bolalarini tarbiyalagan. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining aksariyati bolalarga bag‘ishlanganining o‘zi fikrimizni dalillaydi. Ammo XX asr o‘rtalarida ham adabiyotning muhim bir qismi hisoblangan bolalar adabiyoti tanqidchiligi maqtanarli darajada bo‘lgan emas. Manbalarga yuzlansak, XX asr o‘rtalarida A.Suyumovning “Kichkintoylar adabiyoti”¹, F.Jahongirovning “O‘zbek bolalar folklori”², O.Safarovning “O‘zbek bolalar poetik folklori”³kabi tadqiqotlar yaratildi. Adabiyotlarda bu davr haqida shunday xulosa berildi: “O‘zbek bolalar adabiyoti haqidagi fanning yaratilishi XX asr boshlarida ma’rifatparvar pedagog va adabiyotshunoslar maqolalarida ko‘zga tashlangan bo‘lsa, ilk xrestomatiyalar va o‘quv qo‘llanmalarini tuzish harakati asr o‘rtalariga to‘g‘ri keldi”⁴.

Bolalar adabiyoti bo‘yicha boy adabiy meros egalari o‘laroq, bu boy merosning munosib targ‘ibotchilari, tadqiqotchilari doim ham yetarli darajada bo‘lmagan. O‘tgan asrning 80-90-yillaridan boshlab bolalar adabiyoti tanqidchiligida tub burilish bo‘ldi. Oxunjon Safarov, Safar Barnoyev, Mamasoli Jumaboyev, Safo Matjonov, Qurdosh Qahramonov, Zamira Ibrohimova kabi tadqiqotchilar safida o‘z so‘ziga ega adabiyotshunos Rahmatullo Barakayev ham kirib keldi. Bu davrga kelib endi tetapoya bo‘layotgan bolalar adabiyoti tanqidchiligi inqilobdan keyingi davr manbalari tadqiq etila boshlandi. Bu jarayonning boshida turgan olimlardan biri professor Rahmatullo Barakayevdir. Olimning XX asr 80-yillarida e’lon qilingan “Adabiyot durdonalari – bolalarga”⁵, “Ertaklar – ezgulik elchisi”⁶, “Bolalikning tiyrak nigohi”⁷, “Rus bolalar

¹ Suyumov A. Kichkintoylar adabiyoti -T.1962.

² Jahongirov F. O‘zbek bolalar folklori – T.1975

³ Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti – Buxoro: “Durdona”nashriyoti 2021.7-b.

⁴ Safarov O. O‘zbek bolalar poetik folklori – T.1985

⁵ Баракаев Р. Адабиёт дурдоналари – болаларга. «Ленин учқуни», 1986, 4 февраль

⁶ Баракаев Р. Эртақлар – эзгулик элчиси / Рус ёзувчиларининг эртақлари. Уч бақалоқ. – Т.: Адабиёт ва санъат. 1988. – Б. 3-8

⁷ Баракаев Р. Болаликнинг тийрак нигоҳи. «Шарқ юлдузи», 1988, № 10.

adabiyotidan ilk tarjimalar tarixiga bir nazar”⁸, “L.N.Tolstoy asarlarining o‘zbek tiliga ilk tarjimalari”⁹ kabi turkum maqolalari o‘zbek adabiyotshunosligining katta bir bo‘shlig‘ini to‘ldira oladigan kuch – o‘zbek bolalar adabiyotining munosib tadqiqotchisi maydonga kelayotganidan darak berib turardi.

Ayniqsa, olimning 1988-yil “Yoshlik” jurnalida e‘lon qilingan “Dilda darding bo‘lmasa...”¹⁰ maqolasi “mudrab” yotgan bolalar ijodkorlariga jiddiy turtki bo‘ldi. Aynan shundan so‘ng bir necha bolalar uchun ijod qilayotgan mualliflar tayyor kitoblarini nashrdan avval olimning tiyrak nigohidan o‘tkazish uchun taqdim eta boshlashdi. Va buning amaliy natijasini 90-yillar bolalar adabiyotidagi jonlanishdan sezish mumkin. O‘n yillar davomidagi tinimsiz mehnat, davriy matbuotda jangovar chiqishlar va “XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” mavzusida dissertatsiya himoyasidan so‘ng olinga filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi berildi. Adabiy suhbatlarimizning birida ustozning kamtarlik bilan aytilgan gaplari yodimda: “Dissertatsiya yozish jarayonida shunchalik ko‘p adabiy manbalarni, qo‘lozmalarni o‘qib tahlil qilibmanki, tayyorlangan ish sal kam 300 betga yaqinlashib qolibdi. Ilmiy kengash talabi bilan ishning yarmidan ortig‘ini olib tashlashga majbur bo‘lganmiz”¹¹. Ana shu “olib tashlangan” izlanishlar bir necha maqola va kitoblar ko‘rinishida kitobxonlarga va ilmiy izlanuvchilarga taqdim etildi. Jumladan, Ubayd Zokoniyning “Mushuk ila sichqon qissasi”¹², “Bobolardan bolalarga”¹³ to‘plami, “Hamza Hakimzoda Niyoziy. Aql chirog‘i”¹⁴ va “Jonajonim, she‘riyat”¹⁵ kabi kitoblarni sanash mumkin. Ta‘kidlash joizki, olimning “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”¹⁶ nomli monografiyasi o‘zbek bolalar tanqidchiligida fundamental tadqiqot darajasida qiymatga ega. Olim nomzodlik dissertatsiyasida XX asr boshlaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti namunalarini yangicha guruhlashtirdi, Abdulla Avloniyning bolalarga bag‘ishlangan darsliklariga e‘tibor qaratdi, jumladan, Avloniyning shu paytga qadar hatto tilga ham olinmagan “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asari kattalar uchun yaratilgan asarning bolalarga moslashtirilgan shakli, o‘zbek bolalar adabiyotidagi diniy adabiyot

⁸ Баракаев Р. Рус болалар адабиётидан ilk таржималар тарихига бир назар / Таржима муаммолари (мақолалар тўплами). 3 китоб. 1-китоб. – Т., 1991. – Б. 131-140

⁹ Баракаев Р. Л.Н.Толстой асарларининг ўзбек тилига ilk таржималари / Таржима муаммолари (мақолалар тўплами). 3 китоб. 1-китоб. – Т., 1991. – Б. 140-150

¹⁰ Баракаев Р. Дилда дардинг бўлмаса... «Ёшлик», 1988, № 11. – Б. 71-72.

¹¹ O‘z arxivimda saqlangan manbadan.

¹² Zokoniyy Ubayd. Mushuk ila sichqon qissasi. – Т.: Yulduzcha, 1988

¹³ Bobolardan bolalarga. – Т.: Yulduzcha, 1988

¹⁴ Hamza Hakimzoda Niyoziy. Aql chirog‘i. – Т.: Yulduzcha, 1989

¹⁵ Barakayev R. Jonajonim, she‘riyat (80 yillar o‘zbek bolalar adabiyoti she‘riyati muammolariga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami). – Т.: Cho‘lpon, 1997

¹⁶ O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – Т.: Fan, 2004

namunasi sifatida tadqiq etdi. Avloniyning tarjimonlik faoliyatini birinchi marta bolalar adabiyoti tarjimachiligi namunalari sifatida o‘rgandi.

Olim ilmiy faoliyati davomida A.Avloniy, H.H.Niyoziy kabi jadid ma’rifatparvarlari bilan birga G‘afur G‘ulom, Za’far Diyor, Quddus Muhammadiy, Quadrat Hikmat, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imomberdiyev kabi ijodkorlarning bolalar she’riyati takomilidagi o‘rni va rolini ko‘rsatishga erishgan bo‘lsa, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar kabi iste’dodli bolalar shoirlarini tom ma’noda kashf qildi. Mazkur ilmiy izlanishlarning amaliy natijalari oliy ta’lim tizimida joriy qilindi. Bundan tashqari, Rahmatulla Barakayev XX asr boshlari o‘zbek tarjimachiligi tarixi, adabiy aloqalar hamda bolalar adabiyoti tarjimalari bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar muallifi hamdir. Shu kungacha olim tomonidan 260 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, bir nechta kitoblar e’lon qilingani, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston kabi mamlakatlarda bo‘lib o‘tgan 30 dan ortiq xalqaro ilmiy anjumanlardagi chiqishlar e’tibor va e’tirofga sazovordir. Shuning uchun ham R.Barakayev 2000-yilda Bolalar adabiyoti tadqiqot va targ‘iboti borasidagi faoliyati uchun 2-darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlandi. 2009-yilda katta ilmiy xodim, dotsent unvoni, 2022-yilda esa professor ilmiy unvoniga munosib ko‘rildi.

Bolalar adabiyotini o‘rganilmagan katta sayyora deb tasavvur qilsak, uni tadqiq etishga bir kishining imkoniyati yetmasligini tushunamiz. Shu sababli ham Rahmatulla Barakayev ustoz-shogird an‘analarini munosib davom ettirib, 3 ta filologiya fanlari nomzodi, 5 ta filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorini tayyorladi, olim sifatida o‘rganish zarur bo‘lgan o‘rinlarni ko‘rsatib berdi. Bu ilmiy-adabiy maktab o‘z oldiga o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi va taraqqiyot tamoyillarini belgilash, adabiy aloqalarni tadqiq qilish, bolalar adabiyoti bo‘yicha tarjima tarixi va nazariyasini o‘rganish va bugungi zamonaviy bolalar adabiyotining ilmiy-adabiy manzarasini yaratish yo‘lida izlanishlar olib bormoqda. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida “ehtiyoj farzandi” o‘laroq faoliyat boshlagan Rahmatulla Barakayev o‘z tadqiqotlari bilan tom ma’noda bolalar adabiyotidagi ulkan ilmiy bo‘shliqni to‘ldirdi. Bugun ustoz sharafli yetmish yosh bilan yuzlashib turgan bo‘lsa-da, ilmiy rejalari, ilmda orzulari hali benihoya ko‘p. Bugun adabiyot ahli olimning boy tajribasidan munosib foydalanishi lozim. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 22-dekabrda o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida berilgan topshiriq asosida ishlab chiqilgan “Bolalar uchun mashhur allomalarimizning ilmiy-ma’rifiy merosi haqida ular tomonidan yozilgan hamda ularning ibratli hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan maxsus ixcham asarlar yaratish dasturi”ni amalga oshirishda olimning tadqiqotlari va ilmiy

maqolalarida chiqarilgan ilmiy xulosalari va maslahatlaridan foydalanish o‘rinli va zarurdir.